



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022-YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022-yil yanvar -aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 4 583,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,8%ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

yanvar-aprel


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 38,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,6 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

yanvar-aprel

FHI,%da

3 284, 2

3 702,6

112,6

102,4

2021-y.

2022-y.

2021-y.

2022-y.

2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3702,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ini tashkil etdi.

2021-yil
yanvar-aprel


84,2 %

2022-yil
yanvar-aprel

80,8%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 %ni (2021-yilning yanvar-aprel oylarida – 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,8 % (7,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 13,5% (12,9%) va quyi texnologiyali – 78,4 % (78,3%)ni tashkil etdi.

■ 2021-yil ■ 2022-yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,1 % (2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,5 % (2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,6 %), elektr uskunolari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,8 % (2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,5 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,0 % (2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 68,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2021-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,6 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korhonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari




2020-Y. 2021-Y. 2022-Y.



2020-Y. 2021 Y. 2022 Y.



2020-Y. 2021-Y. 2022-Y.




Omuxta yem ming t



Aroq ming litr
100% spirt




Uzum vinosi ming l




Paxta tolasi,
ming tonna



Paxta chigiti ,
ming tonna



Paxta linti ming t




2022-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 40,8 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 5,3 % ga kamaygan), 10,6 ming tonna paxta tolasi (49,1 % kamaygan), 6,3 ming. tonna yog' mahsulotlari (31,3 % ga ortgan) hamda 19,5 ming tonna paxta chigiti (46,5 %ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-aprel	2022-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	20,9	20,9	0,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	43,1	40,8	-2,3
Paxta tolasi, ming t.	20,8	10,6	-10,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	4,8	6,3	1,5


Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 33,5 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9 %ni, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 33,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni tashkil




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 233,1 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 6,0 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 242,3 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,3 %ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 731,8 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 823,2 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,4 %ga ortgan.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 104,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 117,3 mlrd. so'mni tashkil etib 13,3 mlrd. so'mga ko'paygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,6 %ni tashkil etdi.

2021- yil

104,0

2022- yil

117,3

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 972,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 24,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1239,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 27,0 %ni tashkil etdi va 2,1 punktga ko'paydi .

2021-yil

1632,7

2022-yil

2430,7

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,0 %ni yani jami 545,3 mlrd so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 10,9 % ni tashkil etib 499,1 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 44,2 mlrd. so'mga kamaygan.

2021-yil

545,3


2022-yil

499,1


Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 96,2 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyati bo'yicha 98,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 2,1 %ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 3,0 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 %ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,7 mlrd. so'mga ko'payib, 3,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,7 %ni yani 67,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat o'tgan yilga nisbatan 5,6 mlrd. so'mga kamaygan va 62,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 831,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,1%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 264,6 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-aprel	2022-yil yanvar-aprel	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2276,5	1873,7	-402,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	38,0	30,7	-7,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,2 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-aprel	2022-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	24,6	28,2	3,6
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	7,8	7,1	-0,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,1 mlrd. so'm yoki 14,6 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,7 mlrd. so'm 9,0%ga kamaygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2448,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 110,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 53,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-aprel

34,2%

2022-yil
yanvar-aprel

33,9%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-aprel

65,8%


2022-yil
yanvar-aprel

66,1%

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 41,2 % ni, shuningdek, Namangan tumani 8,8 % ni, Chust tumani 8,4 % ni, Mingbuloq tumani 7,5 %, Kosonsoy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 1005,3 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 41,2 %, Namangan tumanida 216,2 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 8,8 %i shuningdek, Chust tumanida 206,5 mlrd. so'mlik, 8,4 %ni tashkil etdi.




2 219,4 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-aprel

2 448,7 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-aprel



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2021-yil

115,9%

2022-yil

110,3%

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Namangan viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 35,4 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,9 %ni, Chust tumani 8,4 %ni, Uchqo'rg'on tumani 7,1 % tashkil etdi.

Namangan viloyati

2021-yil

3899,8 mlrd. so'm

2022-yil

4583,0 mlrd. so'm

yanvar-aprel



2021-yil

110,8 %

2022-yil

108,1 %

Mingbuloq

196,7

98,5

Kosonsoy

184,6

110,7

Namangan t.

283,4

98,5

Norin

67,5

113,2

Pop

132,6

101,8

To'raqo'rg'on

1002,7

117,6

Uychi

248,4

97,0

Uchqo'rg'on

324,4

109,5

Chortoq

124,9

100,8

Chust

382,8

106,5

Yangiqo'rg'on

59,1

104,2

Namangan sh.

1627,3

100,8

FHI, %da

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,3% shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 13,4 %, Chust tumani 11,1 %ni tashkil etadi.

1461,4 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-aprel

1618,8 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-aprel



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

66,1%




2021-yil

121,4 %



2022-yil

110,7 %




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 46,5 %ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 11,2% ni, Namangan tumani esa 10,8 %ni tashkil etdi.




758,0 mlrd. so'm


2021-yil yanvar-aprel

830,3 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-aprel



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (4 281,4 ming so'm), Namangan shahrida (2 455,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (1 817,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 559,9 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 833,5 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 1516,6 ming so'mni, Mingbuloq tumanida 1392,9 – Namangan tumanida 1173,7 ming so'mni, tashkil etdi.

Namangan viloyati

2021-yil

695,6 ming. so'm

2022- yil

833,5 ming. so'm




2021-yil

113,6 %

2022-yil

107,9 %



ming. so'm


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022-yilning yanvar -aprel oylarida %da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1835,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,0 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqoʻrgʻon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (91,5 %) va Uychi (63,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichkina ulush Toʻraqoʻrgʻon (9,2 %), Uchqoʻrgʻon (16,4 %), Kosonsoy (33,6 %) va Chust (37,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 290 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 762 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,9 % i) Namangan shahriga, 552 tasi (7,6 %) Uychi tumaniga, 551 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 543 tasi (7,4 %) Namangan tumaniga, 528 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 472 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil

670 dona

2022-yil

545 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021-yil

6898 faol dona

2022-yil

7290 faol korxona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan